



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ bo'limi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi asarrufidagi
____-maktabgacha _____ tashkiloti
tayyorlov guruhi tarbiyachisi

_____ning
takomillashgan "Ilk qadam"

o'qitish dasturi asosida
"Ozgi yilgi uchrashuvlar"
mavzusida tashkillangan

FAOLLIYAT

ISHLANMASI

(Iyul oyining 3-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant dos. formatda beriladi.

Tayyorlov guruhlariga iyul oyi 3-hafta "Qiziqarli uchrashuvlar" mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.


Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

OILMANG.



Guruh: Tayyorlov guruhlar uchun

Oy mavzusi: Quvnoq yoz

Hafta mavzusi: Qiziqarli uchrashuv

Maqsad:a) Vatan himoyachilari kuni haqida ma'lumot berish;

b) O'quvchilarni Vatanga, o'zbek xalqining buyuk siymolariga, vatan uchun jonini fido qilgan, shahid ketgan afg'on jangchilariga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni qiyinchiliklarga bardosh berishga, harbiylarning og'ir mashaqqatli mehnatini hurmat qilishga chaqirish;

s) Milliy iftixor tuyg'usi ruhida tarbiyalash.

Maktab faollar zali va sahnasi bayramona bezatilgan. Amir

Temurning: «Askari qudratli mamlakat boy bo'lur», «Kuch adolatdadir» kabi

o'gitlaridan namunalar plakatlarda aks ettirilgan.

Zalning bir tomonida

“O‘zbekiston Respublikasi

Qurolli kuchlari - yurt tinchligi va xavfsizligining

kafolatidir, “O‘zbekiston

qonunlari,” “Harbiylar

hayotidan” kabi sarlavhalar

ostida fotoko'rgazmalar

tashkil etilgan. Ikkinchi

tomonda esa “Vatan posbonlari”, “Bizning yuzdoshlarmiz” kabi mavzularda

o'quvchilarning yozgan ijodiy ma'naviyat namunalari va rasmlari. Shuningdek, zal Vatan

himoyachilari kuniga bag'ishlangan gazetalar, rang-barang gullar va sharlar bilan bezalgan.

Bayram tantanasiga hokimiyat vakillari, maktab xodimlari, harbiy faxriylar va xizmatchilar, askarlar va ularning yordamchilari, maktab faollari, faxriy ustozlar va ota-onalar taklif etiladi.

Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi direktor o'rinbosari tadbirni ochiq deb e'lon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vatan madhiyasi yangraydi. Tadbir qatnashchilari, taklif etilgan mehmonlar, o'quvchilarning qalblarini ko'ksiga qo'yib, madhiyaga jo'r bo'ladilar.

Maktab direktori harbiy himoyachilari kuni haqida tushuncha berib, barchani bayram bilan qutlaydi.

Maktab direktori 1992- yil 14- yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida”gi qarori asosida O'zbekistonning o'z Qurolli Kuchlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993- yil 29 - dekabrda “Vatan himoyachilari kuni belgilash to'g'risida”gi qonunga binoan, 14 -yanvar- Vatan himoyachilari kuni, deb e'lon qilindi.

Mustaqillik yillarida Yurtboshimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan harbiy islohatlar jarayonida qisqa muddat ichida O'zbekistonda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga har jihatdan qodir bo'lgan zamonaviy, eng yangi qurol -yaroqlar va harbiy texnika bilan ta'minlangan mutlaqo yangi milliy armiyamiz vujudga keldi.

Uning zamirida xalqimizning ming yillar davomida shakillangan qadimiy an'ana va qadriyatlarini, buyuk ajdodlarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurning vatanga bo'lgan muhabbati va yurtga bo'lgan sadoqatida mujassamdir.



Albatta,biz o‘z milliy armiyamiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Barchalaringizni Vatan himoyachilari bayrami kuni bilan chin dildan tabriklayman.
Sog‘lik, omad, baxt sizni hech qachon tark etmasin.

(Maktab direktori tadbirga kelgan mehmonlar bilan tanishtiradi va so‘zni tadbirni boshqarib boruvchi oquvchilarga beradi).

I-boshlovchi:

Assalom , armiyam, ulug‘ ostonam ,
Onamday mehribon, qutlug‘ ostonam!
Bag‘ringda to‘lamiz kuchga, quvonchga,
Bo‘lamiz izmingda mardona har dam!

II boshlovchi:

Assalom, davrimiz olov yoshlari,
Buyuk kelajakning ijodkorlari!
Assalom, ertaning yaratguvchisi,
Yurtimiz shavkati, nomusi, ori!

I boshlovchi:

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, qadrlı o‘qituvchilar va jamiykdoshlar!
Bugun maktabimizda katta tantana, Mustqil O‘zbekistonimiz vatandoshlarining, jasur va mard askarlarining bayramlari.

II boshlovchi:

Vatan himoyachilari davlatimiz xavfsizligi va xalqimizning tinch hayoti ta‘minlaydilar. Yurt tinchligi vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz harbiylar!

(Bir guruh harbiy kiyimdagi o‘g‘il bolalar shaxdam o‘yinini “Harbiylar qo‘shig‘i”ni kuylab, sahnaga kirib keladilar).

Elim deb, yurtim deb yashar harbiylar,
Gayrati Amuday jo‘shar harbiylar.
Ona yurt - Turonda tinchlik yo‘lida
Insoniy burchini o‘tar harbiylar!

Naqorat:

Ey, dunyo nazari tushgan hur o‘lka,
Sen bilan biz doim elkama-elka.
Yo‘lboshching yonida kamarbast
Metinday mustahkam po‘lat sa
Ahdimiz oqlshga burchli, haqlim
Osuda, tinch yasha, ey yurtim
Osmon-u falakda, hushyor bo‘lar!
Sarhadda, izmida hushyor bo‘lar!
Yomon ko‘z, yovlar qo‘lida
Kecha-yu kunduzi tayyor bo‘lar!

Naqorat

Elim deb, yurtim deb yashar harbiylar,
Qudrati kundan – kun oshar harbiylar!
Adolat, Halollik, Tinchlik shiori,
Insoniy burchini o‘tar harbiylar!

I - o‘quvchi:

Salom, sizga, eng oily kalom,
O‘zbekiston mard posbonlari!
Sizga ta‘zim, sizga ehtirom,
Ey bahodir, pahlavonlari!

2 – o‘quvchi:

O‘z izmida hushyor hamisha



Ezgu ishga safarbar sherlar!
Eyr –u osmon, tog‘, davon osha
Mard –u maydon muzaffar erlar!

3 – o‘quvchi:

Yurtimning biz - jasur o‘g‘lonlarimiz,
Elimiz tinchligin posbonlarimiz,
Sergakmiz, hushyormiz kecha –yu kunduz,
Haq – u adolatning qalqonlarimiz.

4 – o‘quvchi:

Istiqlol mayog‘i porlagay abad,
Erkimiz tug‘idan nurafshon hayot.
Bunyodkor, mehnatkash ona xalqimiz,
Otalar g‘ururi bizga qo‘sh qanot.

5 – o‘quvchi:

Tog‘ qadar yuksalsin shon – shavkatimiz,
Dovul yo‘lin to‘sgay kuch – qudratimiz.
Baxt –u farovonlik tutgan yo‘limiz,
Jahonda omonlik shul ibratimiz.

6 – o‘quvchi:

Biz, buyuk Turonning mard o‘g‘lonlari,
Hamisha adolat, haq qalqonlari.
Ona vatan uchun xizmatga shaymiz,
Yashnasin, gullasin yurt qo‘rg‘onlari!

I boshlovchi:

Endi e‘tiborlaringizga vatan haqidagi rivoyat asosida taqdim etilgan ona ko‘rinishini havola etamiz.

Rivoyatchi:

Qadimgi hoqonlar davrida Mote ismli yosh hukmdor bo‘lgan ekan. Qo‘shni hoqon uning yurtiga elchi yuboribdi.

Elchi: Hoqonimiz aytdilarki:”Siz sevimli tashlandiq yerdek oq, muqaddas otingizni berar ekansiz, bermasangiz, yurtingizga urush boshlaymiz.”

Yosh hoqon: Menga yurtim, fuqarolarim tashlandiq kerak. Shu bitta ot uchun urush qilmoqchi bo‘lsang, olaqol.

Rivoyatchi: Mote yurt osoyishtaligini saqlash uchun elchisini berib yuboribdi.

Hoqon sevinib, yana elchisini yuboribdi. Mote Motening kanizagini so‘rabdi va niyatiga yetibdi.

Uchinchi gal elchi kelib, hukmdor to‘qmasiz, biror gilyoh o‘smaydigan, yil bo‘yi suvga zor bir parcha yerni so‘rabdi.

Vazir va uning ayonlari hukmdorga qolgan yosh hukumdorga shunday debdilar:”Hoqonim, Siz ulardan sevimli ot uchun kanizagingizni ayamadingiz. Mayli, o‘sha bir parcha tashlandiq yerni ham berib qolmang.”

Hoqon: Yo‘q tulpor, kanizangiz menga tegishli edi, berdim. Ammo bu bir parcha yer - vatan va uning uning sarhadlarida, ota – bobolar, navara – chevaralarning ham haqqi bor.

Ularning haqqini boshqalarga berolmayman.

U yer -

Garchi o‘sha bir parcha yer

Qizib yotar naq tandir.

Begona yer emas,

Bizlar uchun vatandir.

Rivoyatchi: Hukmdor bir parcha yerni dushmanga bermaslik uchun xalqini safarbarlikka otlantiribdi. Ona yurt ishqini yurakka joylab, jangga kirishgan qo‘shinni ko‘rib, ularning shiddatiga dosh berolmay dushman yengilibdi.

II boshlovchi:



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 52 - moddasida shunday deyiladi:
"O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdir."

(Askarlikka kuzatish marosimi ko'rsatiladi).

I boshlovchi:

Endigi tabrik so'zini yaqindagina harbiy xizmatni o'tab qaytgan askar yigit Anvarjondan eshitsak.

Harbiy askar: Vatan himoyachilari kuni muborak bo'lsin!

Men yaqinda harbiy xizmatdan qaytdim. Harbiy xizmatni o'tash har bir yigit uchun sharaflı burchdir.

Davlatimiz tomonidan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan askarlarga ko'pgina imtiyozlar berilgan. Jumladan, namunali xulqi, intellektual salohiyati, astoydil xizmati bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan askarlarga oily o'quv yurtlariga kirishlari uchun tavsiyanomalar beriladi. Bunda ular oily ta'lim muassasalariga kirish uchun yig'ilgan maksimal ballning 90% gacha imtiyozli ravishda ega bo'ladilar. Bu esa yurtboshimiz tomonidan biz asarlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rliklar samarasidir.

Bularning barchasi biz -yoshlarni ona -vatanimizni asrab-avaylashga, uning shuhratini yanada yuksaltirish yo'lida o'qib,izlanishga va hayotda o'z munosib o'rni topishga undaydi. Men bundan faxrlanaman (O'quvchilar harbiy askarga gullar bilan kutib olishadi). ("Andijon polkasi" raqsi ijro etiladi).

I boshlovchi: Endi harbiylar hayotidan qatna xandalar tomonga qaytib kelishgan. Bir harbiy xizmatdan horib, charchab qaytib kelayotgan, yoshlarning shisha idish topib olibdi. Shisha og'zini ochgan ekan, undan bitta jin chiqqan.

U jindan so'rabdi:

-Sen haqiqatdan jinmisan?

-Albatta,xo'jayin.

-Hamma narsani qilishni,ayganlarimni uddalashni ko'rganingmi?

-Albatta,xo'jayin.

-Unda menga chet elga borish uchun bitta "zabzon"ni ko'rsatib ber!

-Uch yuz dollor, xo'jayin!

-A?

-Ha. Hozir jinlar ham tadbirkor bo'lib qolgan.



II boshlovchi Har bir askar xizmati Vatanga qasamyod qilishdan boshlanadi va unga umrbod amal qiladi.

Sahna pardasi ochiladi. Sahna to'ring markazida harbiy xizmatga chaqirilgan askarning tik turgan davlat bayrog'i oldida tiz cho'kib, do'stlari yonida qasamyod qilayotgan payti tavrirlangan. Uning yonida oq libosda turgan askar onasining Vatan himoyasiga otlangan o'g'lonlar uchun duoga qo'l ochib, oq fotiha berayotgani tasviri keltirilgan. Ayni shu pallada ikki o'quvchi qo'lida guldasta bilan sahnaning ikki chekkasida turib she'r o'qiydi.

1- o'quvchi:

Shaxdam qadam ila olg'a bosarlar,
Bo'y- basti kelishgan, o'ktam o'g'lonlar,
Havas ila boqar sizga odamlar,
Xalqni baxt-la asragan, ko'ksi qalqonlar!

2- o'quvchi:

Tinchlik hukm surar yurt osmonida,
Anvoyi gullar bor bog'- bo'stonida,
Hamisha hushyordir yurt qo'rg'onida,
Mudom omon bo'lsin, bedor posbonlar!
(O'quvchilar "Botir askarlar" qo'shig'ni ijro etishadi).

I boshlovchi: Endi sahnaga harbiylar sulolasi vakillarini taklif qilamiz.
Marhamat.

Ota va o'g'ilcha harbiy kiyimda shaxdam qadamlar ila sahnaga chiqib kelishadi.

O'g'il: Dadajon, askar akam
Qadam tashlar gurs, gurs, gurs
Vatanimga, xalqimga
Sodiqman deb began so'z.
Shundaymi?

Ota: - Shunday!

O'g'il: Men ularning ukasi,
Qanday bo'lishim kerak?
Vatan ishiga tayyor -
Bo'lib turishim kerak.
Shundaymi?

Ota: - Shunday!

O'g'il: Vatanimni, xalqimni
Ko'z qorachig'imdek asrayman.
Askar akamga o'xshab,
El ishonchin oqlayman.
Shundaymi?

Ota: - Shunday!

Ofarin, ota o'g'il,
Tilginangga bol-shakar,
Sen ham bir kun ulg'ayib
Bo'lasan botir askar.

II boshlovchi: Yana sizlarni qo'ndalar tinglab, tomosha qilishga taklif etamiz.
Praporshik uyiga kelib xotiniga dedi:

- Qornim rosa ochiqdi, darhol olib kelgin ovqatingni.

Xotin unga nisbatan nolishini boshladi:

- Bugun shunday charchadim-ki! Kun bo'yi bir marta o'tirib turishga ham vaqtim bo'lmadi.

- Praposhikning xotiniga rahmi keldi va uni ikki yuz marta o'tirib turishga majbur qildi.

I boshlovchi:

Yurtimizda To'marisning avlodlari Barchinoyday shiddatli, shaxdli, qasamyodiga sodiq, ahdlari qutlug' posbon libosini kiygan ayollarimiz talaygina. Biz ana shu elkalarida yulduzchalar porlab turgan xotin- qiz harbiylarimizni bugungi bayram ila quyidagi ash'or ila chin



ko'ngildan tabriklaymiz. Doimo ular sog' - salomat bo'lishsin, omad, baxt ularni hech qachon tark etmasligini tilab qolamiz.

1- o'quvchi:

Baxtlisizlar, kun tun elga tinchlik so'rab,
Lekin doim yurolmaysiz kulib yayrab.
Yurtni ko'proq sevgim kelar sizga qarab,
El posboni libosin kiygan qizlar.

2- o'quvchi:

Elkangizda yulduzchalar porlab turar,
Sizni mudon yorug'likka chorlab turar.
Siz kulganda osoyishta olam kular,
El posboni libosin kiygan qizlar.

3- o'quvchi:

Siz- jasur malikasiz, jur'atlisiz,
Gulchehrasiz-hamda go'zal siyratlisiz,
O'rni kelsa, shamoldan ham shiddatlisiz,
El posboni libosin kiygan qizlar.



I boshlovchi:

Hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar! Shu aziz vatan deb, el-u yurt tinchligini o'ylash shahidlar bilan marhum ota – bobolarimiz, akalarimiz xotirasi uchun bir daqiqa sukut saqlashimizni so'rayman.

II boshlovchi:

Jonlar fido Vatanga,
Bu gullagan chamanda.
Yuqtirmaymiz zarra gard,
Nomi aziz jon- tanga!

I boshlovchi:

Yog'diramiz ming rahmat
Onamiz, otamizga!
Omon qolmas yov, kalxat,
Suqsa bosh yurtimizga!

II boshlovchi:

Shuning bilan Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan tadbirimiz o'z nihoyatiga yetdi.

E'tiborlaringiz uchun tashakkur! Doimo sog'lom bo'linglar!

Til, nutq

Mavzu: Harbiylar bilan uchrashuv

Maqsad: bolalar harbiylar kasbiga qiziqadigan bo'lsa, ular bilan muloqotga erkin kirishadilar.

Kerakli jihozlar: harbiylar va ularning hayot haqida rasmlar.

Faoliyatning borishi:

- Harbiylar bilan uchrashuv haqida suhbat o'tirish.
- Harbiylarga bolalar tomonidan savollarga javob olish.
- Harbiylarning shaxsiy hayotidan hikoya tinglash.
- Harbiy bo'lish uchun "nima kerak?" savoliga javob olish.
- Suhbatni xulosalash

Qo'shimcha: Harbiylar haqida she'r va maqollar aytish.


Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarda mustaqil, tartibli bo'lishga, shaxsiy gigienaga rioya qilish ko'nikmasi shakllanganligi.

Fan va tabiat

Mavzu: Qalqon xususiyati

Maqsad: bolalar amaliy tajribada o'yinchoq qalqonning xususiyatlarini tadqiq qiladilar, qo'shimcha ma'lumotlar orqali haqiqiy qalqon haqidagi tushunchalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: bolalar uchun harbiy o'yinchoqlar to'plami, AKT, ko'rgazmali materiallar.



Faoliyatning borishi:

O'yinchoq qalqonni tomosha qilish.

AKT orqali qalqon turlari va uning vazifasi bilan tanishish.

Qalqonni tig' o'tkazmasligini tajribada sinab ko'rish:

o'yinchoq qalqonni kiyish va unga o'yinchoq nayzalarni uloqtirish.

o'yinchoq avtomatdan qalqonga o'q otish.

Tajribada ko'rilgan holatlarni muhokama qilish va xulosalash.

Qo'shimcha: haqiqiy qalqon metallardan yasalishi va unga tig'li, o'tkir predmetlarni o'tmasligi haqida og'zaki va ko'rgazmali materiallarni namoyishi

Alohida e'tibor qaratiladi: amaliy tajriba orqali qalqonning xususiyatlarini aniqlash.

San'at

Mavzu: Men askarman

Maqsad: bolalar askarlarni o'z tasavvurlari orqali tasvirlab bera oladilar.

Kerakli jihozlar: askarlar tasvirlangan rasmlar, mo'yqalam, rangli bo'yoqlar, suv idishi, salfetka, rasm qog'oz.

Faoliyatning borishi:

Askarlar tasvirlangan rasmlarni ko'rib chiqish.

Kim qanday askar rasmini chizishni bolalar tomonidan tanlanishi

Ijodiy ish

Bolalar ishi ko'rgazmasi

Qo'shimcha: askarlar haqida she'rlar

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning askarlar va ularning vazifalari haqidagi tushunchalarini oshirish.

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Mavzu: Harbiy texnika uchun turargoh qurish

Maqsad: bolalar harbiy texnika turargohini yasashda qurilish materiallarini o'z foydalanadilar, turargoh o'lchamini aniq chamalab qurilmani mustahkamlash. Kerakli

jihozlar: namuna, mavzuga oid rasmlar, kubik, lego, o'yinchoq harbiy texnika. Faoliyatning borishi:

Mavzu asosidagi rasmlarni tomosha qilish.

Ko'rgan namuna va rasmlar asosida reja tuzish.

Kerakli jihozlarni tanlash.

Turargohni qurish.

Tayyor ishlarni muhokama qilish va solishtirish.

Qo'shimcha: tayyor turargohlarga o'yinchoq harbiy texnika qo'yib ko'riladi.

Alohida e'tibor qaratiladi: turargohning qay darajada mustahkam ekanligini sinash.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish Mavzu: Ertakchi mehmonda

Maqsad: bolalar ertaklar haqidagi bilimlarini oshirish va ulaydilar.

Kerakli jihozlar: ertak qahramonlari kiyimlarini tasvirlagan lavha tasvirlangan rasmlar, ertak qahramonlariga tegishli buyumlar (sandaloq, xumcha, xumcha, oltin tarvuz va hokazolar)

Faoliyatning borishi:

Ertakchi buvi bilan uchrashuv

Ertakchi buvining bolalariga

Qaysi ertakda chol, kampir, neva, qo'y, quyon, bo'ri, tulki, bo'g'irsoq qatnashgan?

Qaysi ertakda "Ey, haloyiq, men bo'ri bilan uchrashgan gul urug'i qaynatilgan edi" deb

qirol aytadi?

